

LOYIHALARNI SAMARALI MOLIYALASHTIRISHDA KAMAYIB BORUVCHI MUSHORAKADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI: MEXANIZMI VA YO'NALISHLARI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish" kafedrasi tayanch doktoranti

email: irgashevagulbahor77@gmail.com

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 9

DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a5

ABSTRACT

Ushbu maqolada islam moliyasida investitsiyaviy instrumentlardan biri bo'lgan mushorakaning nazariy asoslari, tashkiliy-boshqaruv tizimi, hamda amalda qo'llash tamoyillari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, kamayib boruvchi mushorakaning muhim jihatlari hamda amaliyotda ishlash mexanizmlari yoritib berilgan.

KEYWORDS

Islomiy investitsiyalar, mushoraka, kamayib boruvchi mushoraka, investitsiya loyihalari, islomiy moliyalashtirish mexanizmlari.

Kirish (Introduction/Введение)

Ishlab chiqarish jarayonlarini intensiv va yuksak darajada rivojlantirish, mamlakatlardagi mayjud bo'lgan yoki yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ijtimoiy muammolami bartaraf etish, shuningdek, kambag'allikni kamaytirish, inflatsiya darajasini qisqartirish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini har tomonlama oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash hamda yuksaltirish, bu eng avvalo mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun jaib qilinadigan investitsiyalar oqimi orqali ta'minlanadi. Bugungi kunda musulmon shu bilan birgalikda musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham sezilarli darajada rivojlanib borayotgan islam iqtisodiyoti tamoyillari asosidagi ichki va tashqi investitsiyalarni jaib qilish ayniqsa, muhimdir.

Islam moliyasi dunyo bo'ylab juda tez sur'atlarda o'sib bormoqda, bunga sabab sifatida esa bugungi kunda shariat tamoyillariga asoslangan islam moliya mahsulot va xizmatlariga ko'plab mamlakatlar qiziqish bildirib, foydalanshiga intilishlari, ushbu sohaga bo'lgan talabning yuqorilashishiga sabab bo'lib, sektorning gullab-yashnashiga hissa qo'shib kelmoqda. Shariat tamoyillariga asoslangan islam moliyasi moliyaviy faoliyatni axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, tenglik hamda barqarorlik bilan bog'laydigan muqobil asosni taqdim etadi.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab 47 ta mamlakatda islomiy moliyadan foydalanshiga imkon beruvchi me'yoriy-huquqiy asos ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu davlatlarda keng ko'lamdag'i moliyaviy xizmatlar taklif etayotgan 1600 ga yaqin islomiy moliyaviy muassasalar faoliyat olib bormoqda.

Mazkur tadqiqot ishimizda islomiy moliyaviy investitsiya shartnomalaridan hisoblangan mushoraka va kamayib boruvchi mushorakaning asosiy mazmun-mohiyati, ularni amaliyotda qo'llash tamoyillari tadqiq etilgan. Ushbu islomiy moliyalashtirish vositalari kop qirrali va shariatga muvofiq hamkorlik tuzilmasi bo'lib, undan turli maqsadlarda foydalansh mumkin, jumladan, uy-joyni moliyalashtirish, loyihalarni moliyalashtirish, savdoni moliyalashtirish, aksiyalar va aksiyadorlik mahsulotlari, islam fondlari va mushoraka sukuk kabi bir qator islomiy bank va moliya mahsulotlari uchun asosiy shartnomalar sifatida ishlatalidi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar ham o'z taraqqiyotida ushbu moliyalashtirish vositasidan samarali foydalab kelmoqdalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы).

Ushbu tadqiqot ishimizda, islomiy moliyalashtirish vositalaridan hisoblangan mushoraka va kamayib boruvchi mushoraka (Mushoraka mutanoqisah) bo'yicha izlanishlar olib borilib, ushbu instrumentlarning afzallikkleri hamda imkoniyatlari muallif tomonidan ochib berishga harakat qilingan.

Jahon ilm-fan sohasida islam moliyasi nisbatan yangi yo'nalish bo'lishiga qaramasdan, ko'plab tadqiqotlar qilingan. Jumladan, xorijjiy, MDH mamlakatlari hamda o'zbek olimlari va tadqiqotchilar bu sohaga doir o'z izlanishlarini olib borib, natijalarini e'lon qilib borishmoqda. Xususan, Abdul, W o'zining "Hybrid contracts on Sharia Banking Ownership financing by Musharakah Mutanaqisah" tadqiqot ishida kamayib boruvchi mushorakaning afzallikkleri, amaliyotda foydalansh yo'nalishlarini to'liq yoritib bergan [1]. Shuningdek, Mohammad Dabiri "Diminishing mushorakah - Islamic financial instrument manual" nomli tadqiqotida mushoraka va kamayib boruvchi mushoraka tushunchalari, shuningdek, ularning turlari, asosiy qoidalari, shartlari, qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bergan [2]. Bundan tashqari, Ahroum R. "Murabaha and Musharakah Mutanaqisah pricing: an interest- free approach" nomli tadqiqoti natijasiga ko'ra, islomiy moliyalashtirish vositalari murobaha va kamayib boruvchi mushorakaning nazariy asoslari, tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi, shuningdek, ushbu vositalaming o'xshash va farqli jihatlarini yoritib bergan [3].

Shuni si quvonarlikli, bugungi kunda O'zbekistonda ham bu sohada tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning yildan-yilga ko'payotganini alohida ta'kidlash joiz. Izlanuvchilar o'zlarining tadqiqotlarining natijalarini e'lon qilib borishi bu sohaga qiziqish bildirayotgan yangi o'quvchilar uchun ayni muddao bo'lib, aholi, shuningdek, biznes vakillari orasida islam moliyasi hamda islomiy moliyalashtirish vositalari haqida tushunchaga ega bo'lib, xabardorlik darajasining ortishiga yordam beradi. Xususan, Asadov A. o'zining "Musharakah Mutanaqisah Home Financing: Issues in Practice" tadqiqot ishida kamayib boruvchi mushoraka islomiy moliyaviy instrumenti orqali uy-joyni moliyalashtirish hamda uning amaliyotda ishlash mexanizmini yoritib bergan [4].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalilanigan usullar (Methods/Методы).

Mazkur tadqiqot ishimizni tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlar va sharhlardan foydalaniłgan. Shuningdek, maqolani ilmiy jihatdan keng darajada tahsil qilishda esa sifat yondashuvidan hamda tadqiqot ishini amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, iqtisodiy-statistik, tizimli va qiyosiy tahsil usullaridan ham samarali foydalaniłdi.

Tahillar (Analysis/ Анализ).

Mushoraka arabcha "shirkah" so'zidan olingen bo'lib, sheriklik ma'ninosini anglatadi. Ushbu atama so'zma-so'z tarjima qilinganda "bo'lishish, taqsimlash" degan ma'noni bildiradi va islam fiqhida ikki yoki undan ortiq tomonlaming o'zaro roziligi bilan shartnomasi asosida biznes hamda loyihalarni amalga oshirish uchun tuzilgan qo'shma korxona yoki sheriklik tuzilmasi tushuniladi. Mushoraka an'anaviy foizga asoslangan kreditlashdan keskin farq qiladi, chunki islam qonun-qoidalariiga ko'ra, foiz (ribo)dan foya olish qat'yan man qilinadi. Mushoraka bitimida sheriklar korxona tomonidan ko'rilgan foydadan daromad oladilar, shuningdek, sheriklar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday yo'qotishlar uchun javobgarlikni o'rtoqlashadilar va bиргаликда hal qiladilar, bu esa tavakkalchilikni mutanosib ravishda taqsimlash majburiyatini namoyish etadi. Bu yondashuv mushorakanan an'anaviy kreditor kelishuvlaridan ajratib turadi. Hamkorlik tuzilmasi islomiq iqtisodiy tamoyillarga mos keladi, manfaat va xavflami manfaatdor tomonlar o'rtasida teng va adolatli taqsimlashga yordam beradi. Islom iqtisodchilari va huquqshunoslar mushorakani eng yaxshi islomiy moliyalashtirish vositasini sifatida e'tirof etadilar, chunki u shariat qoidalariaga amal qiladi.

AAOIFI xalqaro standartlariga ko'ra, mushoraka (sharika, shirkat) sherikechilik shartnomasidir, bu ikki va undan ko'proq tomonlar o'rtasida foya olish maqsadida mehnat resurslari yoki majburiyatlamani, aktivlarni birlashtirish to'g'risidagi kelishuvni anglatadi [5].

Mushoraka bitimida ham, shuningdek, boshqa barcha bitimlarda ham amal qilinishi zarur bo'lgan bir qator asosiy qoidalari mavjud, jumladan, shartnomada tuzayotgan tomonlar aqli raso hamda yetuk bo'lishi ya'ni shartnomada tuza olish qobiliyatiga ega bo'lishi, shartnomada tomonlarning o'zaro roziligi bilan tuzilishi hamda hech qanday firibgarlik, aldash yoki noto'g'ri ma'lumot bo'lmashligi talab etiladi. Shuningdek, mushorakaning amal qilish muddati qisqa yoki uzoq muddatlari bo'lishi mumkin. Har bir sherik biznesni boshqarishda ishtiroy etishi yoki sheriklar biznesni boshqarish uchun ma'lum bir shaxsniga qilib qilishlari mumkin. Biznesni boshqarayotgan sherikka boshqaruv to'lovi uchun qo'shinchacha ravishda uning ulushiga mutanosib foya to'lanadi, shu bilan birga, biznes zarar ko'rgan taqdirda ham xodim sifatida boshqaruv to'lovini olish huquqiga ega, boshqaruvda ishtiroy etmaydigan sheriklar uchun ularning foydasini nisbatli ularning kapital qo'yilmalari nisbatidan yuqori bo'lmashligi kerak [6].

Mushoraka bitimining amal qilishi uchun muayyan shartlar mavjud bo'lib, ulaming bajarilishi talab etiladi:

1. Hamkorlar o'rtasidagi ko'rilgan foydani taqsimlash nisbati shartnomada kuchga kirishidan avval kelishib olinishi lozim. Agar ulushlar kelishilmagan bo'lsa, bunday shartnomada shariatga ko'ra noto'g'ri hisoblanadi.

2. Har bir sherikning foya ulushi sheriklar tomonidan kiritilgan mablag' miqdoriga qarab emas, balki ko'rilgan foya ko'lamiga mutanosib ravishda belgilanishi kerak. Bu avvaldan shartnomada kelishilgan bo'ldi. Shuningdek, bir sherik boshqa bir sherikka tomonlarning o'zaro roziligi bilan o'z foydasini kapitaldag'i ulushidan ko'proq belgilashga ruxsat beriladi. Ammo, agar sheriklardan biri ma'lum biznes uchun sarmoya kiritib, ma'lum bir ulushga ega bo'lib, mushoraka shartnomasini tuzsa-yu, ammo biznes faoliyatida ishtiroy etmasa, bunday hollarda uning foydadagi ulushi, kiritgan sarmoyasi nisbatida bo'lishi lozim, undan ko'p bo'lishi mumkin emas. Masalan, bir sherikning sarmoyadagi ulushi 40 foiz bo'lsa, u o'zining foya ulushini 40% doirasida belgilashga haqli, bundan ortiq emas.

3. Mushoraka shartnomasiga ko'ra, sheriklar zarar ko'rsa, har bir sherik o'z sarmoyasining nisbatiga ko'ra zarar ko'radi. Bu tamoyil islam huquqining turli maktablaridagi barcha fuqaholar tomonidan ittifoiq qilingan. Misol uchun, agar bir sherikning biznesdagi ulushi 30 foizni tashkil etsa, u to'liq 30 foiz zarar ko'radi. Shuning uchun bu tamoyilga zid bo'lgan shart qo'yish mumkin emas, aks holda, shartnomada haqiqiy bo'lmaydi.

4. Mushoraka shartnomasida aksariyat fuqaholar fikricha, har bir sherik kiritadigan kapital (sarmoya) likvid shaklda, ya'ni pul ko'rinishida bo'lishi kerak, mahsulot yoki xomashyo ko'rinishida emas. Biroq,

ko'pgina zamonaviy olimlar, agar barcha sheriklar tomonidan kelishilgan taqdirda, kapitalni moddiy aktivlar shaklida qo'shish mumkin degan fikr bildirishgan. Bunday holda, ushbu aktivning mushoraka shartnomasi kuchga kirgan kundagi bozor qiymati aniqlanib, shundan keyingina har bir sherikning kapitaldag'i ulushi ma'lum bo'ladi.

5. Mushoraka shartnomasiga ko'ra, har bir sherik faoliyatini boshqarishda ishtiroy etish yoki ishtiroy etmaslik huquqiga ega. Agar barcha sheriklar sherikchilik tijoratida ishslashga kelishsalar, har bir sherik ishga doir masalalarda boshqa sherikning vakili sifatida amal qiladi va bir sherik tomonidan ijo etilgan ish, qolgan sheriklar tomonidan ma'qullangan hisoblanadi [7].

Shuningdek, mushorakanan ikki turga bo'lish mumkin:

1. Shirkatul-mill (qo'shma mulkka sheriklik, umumiy mulkchilik asosidagi sheriklik) - bu muayyan mulkka ikki yoki undan ortiq shaxslarning bирgalikda egalik qilib, bu ikki yo'l orqali vujudga keladi:

- Ixtiyoriy ravishda vujudga keladigan sherikchilik bunda ikki yoki undan ortiq shaxslar bирgalikda aktiv sobit oladilar, ular ushbu aktivning egasiga aylanadilar.

- Ixtiyorsiz (g'ayri-ixtiyoriy) tarzda vujudga keladigan sherikchilik tomonlarning hech qanday harakatisiz vujudga keladi. Masalan, bu shaxsning o'limi natijasida yuzaga keladi, uning barcha merosxortlari uning mulkini meros qilib oladilar va tabiiy ravishda mulkka ega bo'lishadi.

2. Shirkatul-aqd (shartnomada bo'yicha sheriklik, shartnomaviy sheriklik) tomonlarning o'zaro kelishivi bilan tuzilgan qo'shma sheriklik bo'lib, biznes operatsiyalarida eng ko'p qo'llaniladi. Ushbu sheriklik turida asosan, ikki yoki undan ortiq shaxslar o'tasida foya olish maqsadiga o'z aktivlarini, mehnatini yoki majburiyatlarini birlashtirish to'g'risi idagi kelishuv hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan, shartnomaviy sheriklikni to'itofaga bo'lish mumkin:

1. Shirkatul mufavada (sarmoya va mehnat tengligi) bo'lib, bunda kapital, boshqaruv, foya sheriklar tomonidan teng taqsimlanadi.

2. Shirkatul-am vol (tijorat sohasida hamkorlik) bo'lib, unda barcha ishtiroychilar investitsiya kapitalini tijorat korxonasiya ajratadilar.


3. Shirkatul-amal (faoliyatdagi sheriklik) bo'lib, unda barcha sheriklar o'z mijozlariga qandaydir xizmat ko'satisha o'zaro kelishib oladilar, bu turdag'i xizmatlar turlicha yoki bir-biriga bog'langan bo'lishi mumkin.

4. Shirkatul-vujuhda sheriklar umuman sarmoyaga ega bo'lmaydilar, ular o'zlarining xayriyohligi tufayli qarzga kapital olib, mahsulotni kechiktirilgan narxdan sobit oladilar va ularni joyida sotadilar va o'lingan foydani kelishilgan nisbatda taqsimlanadi.

Mushoraka shartnomasini amaliyotda qo'llashda, eng avvalo sheriklar yoki bank va sheriklar o'tasida biznes-rejani amalga oshirish uchun bitim tuzadilar (1-rasm). Hamkorlar o'tasida kelishilgan shartnomada talablariga muvofiq, loyihani moliyalashtiradilar. Biznes faoliyatni jarayonida foya va zarar yuzaga keladi va bu mutanosib ulushlarda sheriklar o'tasida taqsimlanadi.

Mushoraka bitimi turli maqsadlarda ishlatalishi mumkin bo'lgan moslashuvchan va ko'p qirrali tuzilma hisoblanib, uyni, loyihalarni, savdoni moliyalashtirish, islom fondlari va mushoraka sukuk kabi bir qator islomiy bank va moliya mahsulotlari uchun asosiy shartnomasi sifatida ishlataladi.

Ayniqsa, kamayib boruvchi mushoraka uy-joyni hamda transport vositalarini moliyalashtirish uchun juda qulay [9]. Mushoraka mutanoqisah yoki kamayib boruvchi mushoraka konsepsiysi Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Xalqaro Fiqh Akademiyasi tomonidan 2004-yilda Maskat (Ummon)da bo'lib o'tgan 15-sessiyasida rasman qabul qilingan [10].




1-rasm. Mushoraka shartnomasining ishlash mexanizmi [8].

Mushoraka Mutanaqisah arabcha "She Ra-Ka" so'zidan kelib chiqib, "bo'g'in", "Na-Qa-Sa" so'zidan olingen Mutanoqisah "kamayitirish,

pasayish" degan ma'noni anglatadi [11]. Kamayib boruvchi mushoraka hamkorlik asosidagi moliyalashtirish bo'lib, zararni taqsimlash orqali kamaytirishga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, tomonlardan biri boshqa tomonning aksiyalarini sotib olish majburiyatini oladi [12]. AAOIFI kamayib boruvchi mushorakani quyidagicha ta'riflagan: "Kamayib boruvchi mushoraka - bu sheriklik shakli bo'lib, unda sheriklardan biri boshqa sherikning ulushini asta-sekin sotib olishga va'da beradi va mulk huquqi to'liq sherikka o'tishi bilan tugaydi, shartnomada oldi-sotdi ko'zda tutilmagan bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, sotib oluvchi sheriigiga faqat sotib olish va'dasini berishga ruxsat beriladi, ushbu va'da sheriklik shartnomasidan mustaqil bo'lishi kerak. Bundan tashqari, oldi-sotdi shartnomasi sheriklik shartnomasidan mustaqil bo'lishi kerak. Bitta shartnomani ichiga boshqa shartnomaning shartini qo'yishga yo'l qo'yilmaydi" [13].

Kamayib boruvchi mushorakaning ba'zi asosiy qoidalari mavjud bo'lib, ushbu qoidalarni quyidagilardan iborat:

- foya sheriklarning kelishuviga ko'ra, zararesa kapitalning tegishli hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanishi kerak;
- tijorat faoliyatida ishtiroy etmaydigan sheriklar foydadan o'zlarining dastlabki sarmoyalaridan oshmagan holda ulush olishlari kerak;
- shariat maslahat kengashi shartnomani nazorat qilish huquqiga ega bo'lishi kerak;
- hamkorlik shartnomasi va oldi-sotdi shartnomasi birgalikda emas, alohida amalga oshirilishi kerak;
- bir sherikdan boshqa sherikning ulushini asta-sekin sotib olish uchun majburiy va'da olinishi mumkin [14].



2-rasm. "Kamayib boruvchi mushoraka" shartnomasining ishlash mexanizmi [8].

Kamayib boruvchi mushorakada bank va mijoz o'rtasida ma'lum bir ko'chmas mulk yoki investitsion loyiha obyektini birgalikda sotib oladilar, bunda bank 70 foiz, mijoz esa 30 foiz ulushga egalik qilishi mumkin (2-rasm). Mulk (masalan, uy) sotib olinganidan keyin mijozga ijaraga beriladi, u yudagi banking ulushlaridan foydalanganlik uchun ijara haqini bankka to'laydi. Ijara to'lovi bilan birga mijoz bank aksiyalarini sotib olish uchun qo'shimcha pul to'laydi. Binobarin, banking aktivdag'i hissasi kamayadi, mijoz to'liq aktivdag'i ulush unga o'tgunga qadar ijara to'lovlar hamda bank aksiyalarini sotib olish uchun to'lov qilib boradi. Hamkorlik mijozning aktivga egaligi bilan yakunlanadi. Ushbu kamayib boruvchi mushorakaning amaliyotda foydalanan tuzilmasidan ko'rish mumkinki, bunda uchta mustaqil shartnomalar, xususan, qo'shma korxona tashkil etish (mushoraka), bank aksiyalarini mijozga lizingga berish (ijara) hamda bank ulushini mijozga sotish (bay) ni o'z ichiga oladi.

Kamayib boruvchi mushoraka qo'shma korxona tashkil etish ham hamkorlik loyihalarini moliyalashtirishda eng samarali muqobil shartnomasi bo'lib, butun dunyo bo'ylab musulmon olimlari tomonidan yaxshi qabul qilingan. Kamayib boruvchi mushorakadan uy-joyini moliyalashtirish, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va savdo korxonalarini moliyalashtirish, shuningdek, kichik va o'rta biznes korxonalariga foizsiz kreditlar berishda ushbu shartnomadan foydalaniadi.

References:

1. Abdul, W. (2019). Hybrid contracts on sharia Banking: Ownership financing by Musharakah Mutanaqusah. Advances in social science, Education and Humanities Research, 436, p. 806.
2. Mohammad Dabiri, "Diminishing mushorakah – Islamic financial instrument manual", Institute of Islamic Finance Academy for international Modern Studies, Chatham – Kent, UK, March, 2012.
3. Ahroum, R., & et al. (2017). Murabaha and Musharakah Moutanaquissah pricing: an interest- free approach. Journal of Islamic Accounting a Business Research, 11(1), p. 203.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Kamayib boruvchi mushoraka islomiy moliyalashtirish instrumentlaridan biri hisoblanib, tomonlar o'rtasida axloqiy va hamkorlikda investitsiya qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Kamayib boruvchi mushoraka umumiy tavakkalchilik va foydani rag'batlantirish, foizlarga asoslangan operatsiyalaridan qochish va aktivlarga egalik qilishni rag'batlantirish orqali islom tamoyillariga mos keladi. Bu halol moliyalashtirish usullarini qidirayotgan musulmonlar vao'sib borayotgan islomiy moliya bozoriga kirishmoqchi bo'lgan muassasalar uchun uni jozibador variantiga aylantiradi.

Kamayib boruvchi mushorakadan turli sohalarda samarali foydalanshan mumkin:

ko'chmas mulknii moliyalashtirishda kamayib boruvchi mushorakadan foydalanshan mumkin. Jismoniy shaxslar yoki korxonalariga islomiy mulkchilik va umumiy tavakkalchilik tamoyillariga muvofiq foizli kreditlarga murojaat qilmasdan mulknii sotib olish imkonini beradi;

kamayib boruvchi mushoraka kichik va o'rta biznes korxonalarini uchun moliyaviy yechimlami taqdim etish uchun moslashtirilishi mumkin. Bu biznes aktivlariga birgalikda egalik qilish imkonini beradi, bu esa kichik va o'rta biznes korxonalariga foiz (ribo)li qarzlarsiz operatsiyalarni kengaytirish yoki asbob-uskunalar, mashinalarni sotib olish imkonini beradi;

keng miqyosli infratuzilma loyihalari, xususan, transport, kommunal xizmatlar va telekommunikatsiya kabi sohalarda kamayib boruvchi mushorakadan foydalanshan orqali foya ko'rishi mumkin. U shariat tamoyillariga roya qilgan holda loyihalami moliyalashtirishga tizimi yondashuvni ta'minlaydi;

Qishloq xo'jaligi korxonalarini va agrobiznesni kamayib boruvchi mushoraka orqali moliyalashtirish, fermerlar va qishloq xo'jaligi korxonalariga foiz stavkalari asosida bitimlar qilmasdan yer, asbob-uskunalar va boshqa aktivlarni sotib olish imkonini berish orqali osonlashtirilishi mumkin;

kamayib boruvchi mushoraka sog'liqni saqlash muassasalarini, uskunalarini va infratuzilmasiga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. O'z muassasalarini kengaytirmoqchi yoki yangilamoqchi bo'lgan shifoxonalar, klinikalarga shariatga muvofiq moliyalashtirish variantini taqdim etadi;

quyosh, shamol yoki gidroelektr stansiyalari kabi qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirish kamayib boruvchi mushoraka orqali amalga oshirishdan foya ko'rishi mumkin. U islomiy moliya tamoyillariga roya qilgan holda barqaror rivojlanish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi;

texnologiya startaplarini, innovatsion markazlarni va IT infratuzilmasini moliyalashtirish kamayib boruvchi mushoraka orqali amalga oshirilishi sohani qo'llab-quvvatlanishi mumkin. U tez rivojlanayotgan texnologiya sektoridagi korxonalar uchun moslashuvchan moliyalashtirish tuzilmasini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kamayib boruvchi mushoraka korxonalamining islomiy tamoyillarga muvofiq moliyaviy ehtiyojlarni qondiradi hamda moliyaviy institutlarning bozordagi ishtiropini kengaytirish va axloqiy moliyaning global o'sishiga hissa qo'shish imkonini beradi.

Kamayib boruvchi mushoraka asosida aktivlarni sotib olish va rivojlantirish hamda moliyalashtirish ehtiyojlari uchun markaziy o'rta tutadigan keng doiradagi sektorlarda qo'llanilishi mumkin. Uning moslashuvchanligi va islomiy tamoyillarga sodiqligi shariatga mos moliyaviy yechimlarni qidirayotgan aholi va biznes sektori vakillari uchun ko'p qirrali variantga aylantiradi.

-
4. Asadov, A., & et al. (2018, 1 25). Musharakah Mutanaqisah Home Financing: Issues in Practice. Journal of Islamic Accounting and Business Research, 9(1), p. 2.
5. Baydaulet, E.A., (2019), Islomiy moliya asoslari [Matn] / E.A. Baydaulet. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, – 432 b.
6. Mohammad Dabiri, "Diminishing musharakah – Islamic financial instrument manual", Institute of Islamic Finance Academy for international Modern Studies, Chatham – Kent, UK, March, 2012.
7. Muhammad TaqiUsmani, (2011), An Introduction to Islamic Finance. -169 pages;
8. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
- 9.<https://www.blossomfinance.com/posts/basics-of-musharakah-joint-venture-and-use-in-islamic-banks>
10. Asadov, A., & et al. (2018, 1 25). Musharakah Mutanaqisah Home Financing: Issues in Practice. Journal of Islamic Accounting and Business Research, 9(1), p. 2.
11. Shahwan, S., & et al. (2013). Home financing pricing issue in the Bay Bithaman Ajil (BBA) and Musharakah Mutanaqisah (MMP). GJAT, 3, p. 28.
12. Dinc, Y. (2017). A Suggestion on Mortgage Financing of Islamic Banks: Diminishing Musharakah. International Journal of Trade, Economics and Finance, 8(1), 3.
13. AAOFFI Shariah Standard. (2017). Shariah Standard. (12), 346-347. Retrieved from <http://www.iefpedia.com/english/wp-content/uploads/2017/12/Shariaa-StandardsENG>.
14. Asadov, A., & et al. (2015). Musharakah Mutanaqisah Home Financing: Shari'ah Issues, Financial Implications and Accounting Considerations. IIUM International Accounting Conference (INTAC), (p. 4). Kuala Lumpur, Malaysia.
15. Dinora Baratova¹, Khayrullo Khasanov¹, Hakimjon Hakimov¹, Khusniddin Uktamov¹ and Elbek Gulomov² International Scientific and Practical Conference "Priority Directions of Complex Socio-Economic Development of the Region" (PDSED 2023) Ways to Develop Financial Resources in the Innovative Development of the <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202344905010..>